O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
MADANIYAT VA SPORT ISHLARI VAZIRLIGI
RESPUBLIKA AXBOROT VA METODIKA MARKAZI
O‘ZBEKISTON DAVLAT KONSERVATORIYASI

**Surayyo XODJAYEVA**

# XALQ CHOLG‘ULARIDA IJROCHILIK

(Nay-qo‘shnay sinfida an’anaviy musiqa namunalari)

**Oliy ta’lim muassasalari talabalari uchun**
**o‘quv qo‘llanma**

“MUSIQA” nashriyoti
Toshkent
2016

**XXXXX**
**XXX**

**Xodjayeva, Surayyo.**
**Xalq cholg‘ularida ijrochilik (Nay-qo‘shnay sinfida an’anaviy musiqa namunalari).** Oliy ta’lim muassasalari uchun o‘quv qo‘llanma. “Musiqa” nashriyoti, – T.: 2016. - 72 bet.

XXXXXXXXX

Ushbu o‘quv qo‘llanma O‘zbekiston Respublikasi Madaniyat va sport ishlari vazirligining Madaniyat va san’at bo‘yicha o‘quv-metodik kengashi hamda O‘zbekiston davlat konservatoriyasining O‘quv-uslubiy kengashi tomonidan nashrga tavsiya etilgan.

***Mas’ul muharrir:***
Anvar Lutfullayev – O‘zbekiston davlat konservatoriyasi professori

***Nota muharriri:***
Avaz Mansurov – O‘zbekiston davlat konservatoriyasi professori

***Taqrizchilar:***
Murod Toshmuhamedov – O‘zbekiston davlat konservatoriyasi professori
Rustam Abdullayev – O‘zbekiston Bastakorlar uyushmasi raisi, professor

Ushbu o‘quv qo‘llanma Oliy ta’lim muassasalarining “Cholg‘u ijrochiligi” (xalq cholg‘ulari) bakalavriat yo‘nalishi bo‘yicha tahsil olayotgan 2-kurs talabalari uchun yozilgan. Ixtisoslik, ya’ni “Xalq cholg‘ularida ijrochilik” fanining amaliy mashg‘ulotlarida nay, qo‘shnay cholg‘ulari va fortepiano uchun qayta ishlangan yoki moslashtirilgan xalq kuylarini mukammal o‘rganib olishlarida katta yordam beradi.

Qo‘llanma ixtisoslik fanidan dars berishni boshlayotgan yosh mutaxassislarga ham dastlabki uslubiy yordam vazifasini bajarishi mumkin.

Это учебное пособие предназначено для студентов 2 курса бакалаврията высших учебных заведений по предмету исполнительство на инструментах (Народные инструменты). Узбекские традиционные произведения переложенные для исполнения ная, кушная с фортепиано помогут в практических занятиях по специальности, т.е “Исполнительство на народных инструментах”.

Этим пособием могут воспользоваться молодые педагоги в начале преподавательской деятельности.

This tutorial is intended for students of 2nd year on subject of playing on the Tools Folk Instruments.

Uzbek traditional works transcribed for performance nay, kushnay with piano will help in practical training in the specialty, performing on the popular Instrument
This material can be helpfull of young teachers at the start of teaching.

“Musiqa” nashriyoti, 2016
ISBN xxxxxxxxxxxxxx
© Surayyo Xodjayeva, 2016

## MUALLIFDAN

O‘zbekiston o‘z mustaqilligiga erishib, yuksalish, taraqqiyot yo‘lidan borar ekan, o‘tgan davr mobaynida barcha jabhalarda ko‘plab yutuqlarga erishdi, deb ishonch bilan ta’kidlay olamiz. Prezidentimiz I.A.Karimov tomonidan har bir sohaga berilayotgan e’tibor yurtimizni buyuk kelajak sari olg‘a yurishiga asos bo‘lmoqda.

Barcha sohalar qatorida madaniyat va san’at sohasiga berilayotgan e’tibor, ijodkorlar uchun yaratilayotgan shart-sharoitlar ham yurtimiz ravnaqiga munosib hissa bo‘lib qo‘shilmoqda. Ayniqsa, bu borada ijodkor yoshlarimizning jahon sahnalariga chiqayotgani, nufuzli tanlovlarda sovrindor bo‘layotganligi albatta quvonarli hol. Yoshlar ishtirokida tashkil etilayotgan festival, konstertlar, xususan xalq cholg‘ularida ijrochilik bo‘yicha ijodiy tanlovlar muntazam o‘tkazilayotganligi tahsinlarga loyiq. Davlatimiz rahbari milliy san’atimiz bilan bir qatorda akademik yo‘nalishdagi san’at turlariga ham katta e’tibor qaratmoqda. O‘zbek xalq cholg‘ularida akademik yo‘nalishda ijrochilik san’atiga berilayotgan e’tibor natijasida yuksalib kelayotgan mahoratli sozandalar bunga yaqqol dalil bo‘la oladi. Zero, san’at qaysi yo‘nalishda bo‘lishidan qat’iy nazar insoniyatning ma’naviy ozuqasi hisoblanadi. Yurtboshimiz I.Karimovning “Yuksak ma’naviyat - engilmas kuch” kitobida san’at borasida aytib o‘tgan fikrlarini keltirib o‘tish mumkin: “Insonning ruhiy kamoloti xaqida gapirar ekanmiz, albatta bu maqsadga musiqa san’atisiz erishib bo‘lmaydi. Xalqimiz hayotida musiqa azaldan beqiyos o‘rin tutib keladi...”.

Musiqa sadolari qaysi xalq yoki millat vakili tomonidan ijro etilmasin, eng ezgu, yuksak va nozik insoniy kechinmalarni ifoda etadi. Barchamizga ayonki, kuy-qo‘shiqqa, san’atga muhabbat, musiqa madaniyati xalqimizda bolalikdan boshlab, oila sharoitida shakllanadi. Uyida dutor, doira yoki boshqa cholg‘ular bo‘lmagan, musiqaning hayotbaxsh ta’sirini o‘z hayotida sezmasdan yashaydigan odamni bizning Vatanda topish qiyin, desak mubolag‘a bo‘lmaydi.

Nay, qo‘shnay cholg‘ulari milliy cholg‘ularimiz orasida eng qadimiylaridan hisoblanadi. Ular puflab chalinadigan cholg‘ular toifasiga kiradi, Sharq mamlakatlarida, xususan Markaziy Osiyoda qadimdan keng tarqalgan. Tarixiy manbalardan barchaga ma’lumki, dastavval cho‘ponlar nayi paydo bo‘lgan. Tayyorlanish materialiga qarab ular turlicha nomlanadi: g‘arov nay, yog‘och nay, mis nay va boshqalar. Naylarning diametri 20-30 mm va uzunligi 450-520 mm bo‘ladi. Nay cholg‘usining kanalida havo ustuni paydo qilish uchun yuqori

tomondan uchi tiqin bilan berkitiladi. Shu joyda puflanadigan asosiy teshik mavjud. Uning qatorida esa yana 6 ta teshik bo‘lib, ularga ikkala qo‘lning tegishli barmoqlari qulay biriktirilgan bo‘ladi. Bu teshiklar barmoqlar bilan to‘la yoki yarim berkitish va puflash kuchini o‘zgartirish natijasida 2,5 oktava diapazonidagi tovushqatorni tashkil etadi. Cholg‘uning boshqa tomoni va uchida yana 2 yoki 3 ta qo‘shimcha teshiklar bo‘lishi mumkin, ular tovush tozaligi va muvozanatini saqlash uchun yordam beradi. Ansambl va orkestrlarda ijro oldidan sozandalar asosan nayga qarab boshqa cholg‘ularni sozlab oladilar. Naychilar jamoalarda etakchi sozandalar hisoblanadilar.

Qo‘shnay ham hozirgi davrda orkestrlar va ansambllar tarkibida keng qo‘llanilayotgan cholg‘ulardandir. U naydan farqli o‘laroq tilchali musiqa cholg‘usidir. Tilchalar bir-biriga o‘zaro bog‘langan 2 ta bir xil g‘arov qamishdan ishlanadi. Yonma-yon joylashtirilgan naychalarning uzunligi 250-300 mm, diametri 14-16 mm atrofida bo‘ladi. Puflash uchun ikkala naycha uchining to‘siq qismida tilcha ochilgan bo‘ladi. Havo ustiningning tebranayotgan qismlarini qisqartirish yoki uzaytirish uchun ipdan xalqasi va uning pastida 7-8 barmoq ishlatiladigan teshikchalari mavjud. Cholg‘uning diapazoni 1,5 - 2 oktava oralig‘ida bo‘ladi, diapazonni kengaytira olish sozandaning mahorati bilan uzviy bog‘liqdir. Qo‘shnay kuchli tovushga, yoqimli tembrga ega.

5150700 – Cholg‘u ijrochiligi (xalq cholg‘ulari) bakalavriat ta’lim yo‘nalishi o‘quv rejasidagi eng asosiy fan – bu albatta ixtisoslik fani, ya’ni turlari bo‘yicha “Xalq cholg‘ularida ijrochilik” fanidir. Nay-qo‘shnay ixtisosligini o‘zlashtirishda ham ta’limning zamonaviy metodlari (xususan, interfaol), pedagogik va axborot-kommunikastiya texnologiyalari ijodiy o‘quv jarayonida unumli qo‘llaniladi. Axborot-resurs markazlari kompyuterlari, “Internet”, “Ziyonet” kabi axborot resurs tarmoqlari, maxsus Veb-saytlar sahifalaridan unumli foydalanish, maxsus o‘quv adabiyotlari – darslik, o‘quv qo‘llanma, uslubiy qo‘llanma, metodik tavsiyalar, nota grafikasi yuzasidan amaliy kompyuter dasturlaridan keng foydalanish nazarda tutiladi.

Alohida ta’kidlash joizki, mazkur qo‘llanma an’anaviy (bosma) o‘quv adabiyotlari toifasiga kiradi. Kitobni chiqarishga mas’ullar, muharrirlar bilan maslahatlashib, ilg‘or pedagogik texnologiyalarga tayangan holda, zamonaviy axborot texnologiyalaridan unumli foydalanishni ko‘zda tutib, mashg‘ulotlarni tashkil etish va ayniqsa talaba mustaqil ta’limini ko‘zlab, barcha zarur ma’lumotlarni kompakt-disk shaklida ham ilova qildik. Unga ijro dasturiga kiritilishi lozim bo‘lgan 4 ta asarning nota ko‘rinishlari hamda elektron audio yozuvlari, musiqiy krossvordlar, testlarning elektron versiyalari kiritildi.

Aziz talabalar! Qo‘lingizdagi ushbu qo‘llanma sizlarning nay, qo‘shnay cholg‘ularida ijrochilik san’ati, xalq kuylari va ularni qayta ishlash yoki moslashtirish tushunchalari, qolaversa bastakorlarimiz – To‘xtasin Jalilov va

Muxtorjon Murtazoyev haqidagi bilimlaringizni yanada oshirishga hamda ijrochilik mahoratingizni yuksaltirishga xizmat qiladi, degan umiddaman.

**Surayyo XODJAYEVA,**
O'zbekiston davlat konservatoriyasining
nay-qo'shnay sinfi bo'yicha katta o'qituvchisi

# XALQ KUYLARINI QAYTA ISHLASH VA MOSLASHTIRISH TUSHUNCHALARI

Kompozitorlik san'ati paydo bo'lgandan so'ng musiqa keng va chuqur ma'noda ko'p ovozli polifonik ko'rinishda va gomofon-garmonik uslubda yangray boshlaganligi barchaga ma'lum. Xalq musiqiy merosiga boy mamlakatlarda ijrochilik asosan og'zaki yo'l bilan, "ustoz-shogird" uslubida ajdodlardan-avlodlarga o'tib kelgan va kelmoqda. Xalq ijodiyotini yozib olish har qanday madaniyat rivojlanishida dolzarb masala bo'lgan. Bunday jarayonlar musiqada ham kuzatilgan. Xususan, O'zbekistonda bunday merosni notaga olish 19-asr oxirlaridayoq boshlangan. Xalq kuylarini qayta ishlash – bu professional musiqa hisoblanmish – bastakorlik va kompozitorlik ijodiyotining bir yo'nalishidir. Namunalari muayyan janr sifatida qabul qilinganligiga ham ancha vaqt bo'ldi. Dastlab ijodiyotga kirib kelgan "garmoniyalash" tushunchasi endilikda yanada chuqurroq, yanada keng ma'noda "Aranjirovka" deb nomlanayapti va u nima ekanligini yangi zamon kishisi, u yosh bo'ladimi yoki keksa yaxshi biladi. Ta'kidlash joizki, xalq kuylarini qayta ishlash yuqoridagilarga nisbatan birmuncha murakkab va mas'uliyatliroq ijodiy jarayondir.

O'z paytida To'xtasin Jalilov, Yunus Rajabiy kabi ustozlarimiz mumtoz kuy va ashulalarimizni qayta ishlab, zamonaviy sayqal berib "qayta ishlash"ning monodiya zaminidagi yuksak namunalarini yaratishganligi endi musiqa san'ati tarixidan ham o'rin oldi. Bunday ijodiy izlanishlar O'zbekistonda musiqali drama, opera, balet, kamer musiqa janrlari o'zlashtirilishida muhim omil bo'ldi.

Xalq kuylarini qayta ishlashda B.Nadejdin, T.Sodiqov, B.Gienko, M.Leviyev, D.Zokirov, Sayfi Jalil, F.Alimov izlanishlari alohida e'tirofga loyiq bo'lgan. Hozirgi davrda bu ustozlarning ishini R.Abdullayev, H.Rahimov, Mustafo Bafoyev, Nadim Norxo'jayev, Avaz Mansurov kabilar va ularning shogirdlari ham samarali davom ettirishmoqda.

"Moslashtirish" tushunchasi ham "xalq kuylarini qayta ishlash"ga juda yaqin bo'lgan ijodiy ishni anglatadi. Notaga olingan har qanday xalq musiqa merosiga taalluqli kuyni ma'lum bir cholg'uda yoki turli cholg'ulardan tuzilgan ansambllar tarkibiga moslab ijro etish mumkin. Hamma gap shundaki, bir ovozli biror kuyning notasini puflama, tirnama, chertma, zarbli, torli-urma yoki torli-kamonli cholg'u uchun alohida yozib chiqadigan bo'lsangiz, ularning nota ko'rinishi biroz farq kilishi mumkin. Chunki monodik kuyni turli cholg'ular uchun o'ziga xos uslubda

notaga tushirish lozim. Masalan, dutorda o‘sha kuy albatta ikkala simda, ya’ni 2 ovozda yangrashi kerak, puflamalarda nafas bilan, torlilarda barmoqlar harakati bilan bog‘liq holda nota yozuvi echim topadi. Demak, barcha cholg‘ularimizda o‘ziga xoslik mavjud, “moslashtirish”ning ham o‘zgacha nozik tomonlari borligi hamisha e’tiborimizda bo‘lishi darkor.

Qayta ishlangan yoki ma’lum bir cholg‘ular ansambli tarkibida ijro uchun moslashtirilgan kuylardan namunalar ko‘p yillardan buyon konstert-pedagogik repertuarlarga kiritib kelinmoqda. Ta’kidlash joizki, chang cholg‘usi uchun Ahmadjon Odilov, nay uchun Mirza Toirov, dutor uchun G‘ulomjon Qo‘chkorov kabi ustozlarimiz ham ijodiy izlanishlarga qo‘l urib, bir talay namunalarni yangi avlod sozandalarini tarbiyalash uchun nota to‘plamlarida e’lon qilishgan. Ulardan pedagogik faoliyatimizda unumli foydalanish bilan birga bizlar – yangi avlod o‘qituvchilari ham tortinchoqlik bilan, lekin maslahatlar so‘rab oz-oz mashqlar bajarayapmiz. Zora bizlardan ham yangi avlod sozandalariga - shogirdlarimizga nimadir qolsa...

## 3-semestr ijro dasturiga tavsiyalar

5150700 – Cholg‘u ijrochiligi (xalq cholg‘ulari) bakalavriat ixtisosligining 2-kursida tahsil olayotgan talabaga 3-semestr mobaynida boshqa texnik va yirik asarlar qatorida, tasdiqlangan yillik dasturga binoan (namuna sifatida) xalq merosiga va bastakorlik ijodiyotiga taalluqli bo‘lgan quyidagi an’anaviy musiqa namunalarini o‘zlashtirishni tavsiya etaman:

1. “Bir ishva bilan”, M.Murtazoyev musiqasi (nay yakkanavozligi uchun);
2. “Muhabbat”, xorazm xalq kuyi (qo‘shnay yakkanavozligi uchun).

**“Muhabbat” kuyining doyra jo‘rligidagi original ko‘rinishi**

# "MUHABBAT"

Xorazm xalq kuyi.
Qo'shnay va doyra uchun
Surayyo Xodjayeva moslashtirgan.




16
20
24
28
mf
32


36
40
ff
f
44
48


52
56
60
rit.
Più mosso
mf
64
f
f


69
74
78
3
82
f
86


90
mf
95
f
98
rit.

## “Muhabbat” kuyining qo‘shnay va fortepiano ijrosi uchun moslashtirilgan varianti xususida

Mazkur xorazm xalq kuyini akademik yo‘nalishda ijro etish uchun fortepiano cholg‘usini qo‘shishga, bu 2 cholg‘u o‘rtasida ansamblni hosil qilish uchun ma’lum bir ijodiy ishlar amalga oshirildi. Asar boshlanishiga “Kirish” musiqasi yozildi, dastlabki taktlardanoq asarning umumiy xarakterini beradigan faktura, ya’ni musiqiy mato tanlandi. Keyinchalik ham yakkanavoz cholg‘uga hamohang bo‘ladigan barcha unsurlarni zamonaviy talablarga, yangicha musiqiy til, garmonik echimlar va faktura ko‘rinishlariga javob beradigan darajada hal etdim. Bunday ijroga moslashtirilgan asar avvalom bor tinglovchilarga zavq baxsh etishi kerak. Qolaversa, qadimiy cholg‘umizga xos bo‘lgan ijodiy yo‘nalishni shogird qulag‘iga singdirish, unda xalq kuylari va bastakorlik ijodiyotiga mehr uyg‘otish zarur.

**Asar tempi:** ***Allegro*** **(M.M.=120);**

**O‘lchovlari o‘zgaruvchan: 5/4; 3 / 4; 5/4; 6/8 va 5/4;**

**Tonalligi: Re-doriy ladi.**

Asarning kirish qismi – yakka qo‘shnayning 1 taktli eng asosiy jumla (musiqiy fraza)ning 1-bo‘lagini chalishidan boshlanadi. Fortepiano ham unga 1 taktli javob kuyini chaladi. 3-taktda yana qo‘shnay asosiy jumlaning 2-bo‘lagini chaladi, unga ham fortepiano javob qaytaradi. Duetdagi bu yangrashlarni xuddi 2 kishi ma’noli suhbat qurish niyatini bildirayotganga o‘xshatish joiz. Keyingi taktlarda esa fortepiano asosiy ohang yo‘li boshlanishini tayyorlaydi. So‘ng 4 taktli asosiy kuyni qo‘shnay yakka ijro etadi. 2-bor qaytarilishiga fortepiano yoqimli garmonik akkordlar birin-ketinligida o‘ziga faktura (musiqiy mato) tanlaydi va ma’lum fursatgacha uni ushlab turadi. Qo‘shnaydagi kuy yo‘li avjga ko‘tarilgani sari fortepianoda ham gomofon-garmonik va polifonik faktura (musiqiy mato), kuy yo‘llari kuchaya boradi.

72-taktdan boshlab asarning tez qismi boshlanadi. Fortepiano “ufori usul”da qo‘shnay boshlashi lozim bo‘lgan kuyni tanishtiradi. So‘ng doyra cholg‘usi misoli “usul” berishga o‘tadi. Fortepiano fakturasi (musiqiy mato)da kuyni ikkilantirish, 2 va 3 ovozli polifonik kuylar bilan to‘ldirilganligini asarni to‘liq o‘zlashtirganingizda bilib olasiz. Bu asarni keyinchalik ham o‘zingizning, yangi avlod shogirdlaringizning kontsert va pedagogik dastur (repertuar)lariga kiritishingiz mumkin.

# "MUHABBAT"

## Qo'shnay va fortepiano uchun

Xorazm xalq kuyi.
Qo'shnay va fortepiano uchun
Surayyo Xodjayeva moslashtirgan.




12
p
16
mp
20
24
p


28
mp
32
36
mf
39


42
46
49
mf
52
ff
f


56
60
p
64
68
rit.
rit.


72
Più mosso
f
tr
77
mf
p
81
f
mf
85


90
95
3
f
mf
99
104
mf
mp


109
f
f
113
rit.
rit.

## Muxtorjon Murtazoyev hayoti va ijod yo‘li haqida qisqacha ma’lumotlar

O‘zbekiston mumtoz musiqa san’ati rivojiga munosib hissa qo‘shgan sozanda va bastakor Muxtorjon Murtazoyev 1909-1994 yillarda yashab ijod qilgan. Qo‘qon shahriga yaqin joylashgan Nursux qishlog‘ida, ziyolilar oilasida dunyoga kelgan. Bolaligidan musiqa ijrochiligiga mehr qo‘ygan. Ustozlari – Mo‘ydinjon Najmiddinov (tanbur, dutor), Ahmadjon Umrzoqov (surnay, qo‘shnay), Qodirjon Hamdamov (g‘ijjak) kabilardan sozandachilik sirlarini o‘rgangan. Bastakorlik san’atining nozik sirlarini Yunus Rajabiy va To‘xtasin Jalilov bilan birga ishlashgan yillarda o‘ziga singdirib olgan.

“Farg‘ona tong otguncha” (Haziniy g‘azali), “Tamanno” (Haydar Yahyoyev so‘zlari), “Bizni tashlab” (Miskin g‘azali), “Bir ishva bilan” (Hamza g‘azali), “Tasadduqman” (Chustiy g‘azali), “Sunbullaring” (Charxiy g‘azali), “Ey, ko‘ngil” (Navoiy g‘azali) kabi o‘nlab ashulalari o‘ziga xos uslubda, o‘zgacha ohang yo‘llari bilan yaratilganligi sababli, boshqacha qilib ta’riflaganda – bastakorlikdagi novatorligi uchun Muxtorjon Murtazaevga shonu shuhrat keltirdi. Bu asarlar ohanglarida qancha-qancha xonanda-yu sozandalar tarbiyalandi va bundan keyin ham O‘zbekistonning yangi avlod san’atkorlari ularga tayanib tarbiyalanadi, musiqa shinavandalari - tinglovchilar ma’naviy ozuqa oladilar.

O‘zbekiston xalqining eng sevimli xonandalari - Tavakkal Qodirov, Murodjon Ahmedov, Jalolxon Oxunov, Mashrabjon Ermatov kabilar, Tojikiston va Qirg‘izistonda ham dong taratgan xonandalar – Jo‘rabek Nabiyev va Yorqinoy Xatamova kabilar bilan Muxtorjon Murtazoyevning ijodiy hamkorligi – barchalarining san’atda birgalikda yuksalishlariga, nomlari elu yurtga tanilishiga sabab bo‘lgan, deb ishonch bilan ta’kidlash mumkin.

Qo‘qon, Farg‘ona, Muqimiy nomidagi davlat teatrlarida (Yangi yo‘l- Toshkent), Pushkin nomidagi Xo‘jand teatrida (Tojikiston) musiqa rahbari (konstertmeyster) sifatida faoliyat ko‘rsatib, kompozitorlar va bastakorlarimizning ko‘plab musiqali dramalari sahnalashtirilishiga, shu janr rivojlanishiga bevosita ta’sirini ko‘rsatgan sozanda va bastakor M.Murtazoyev o‘zi ham “Qumrining murodi” (Jalol Mashrabiy asari) va “Ishq obod” (Dehqonboy Jalilov bilan hammualliflikda, Sobir Abdulla asari) musiqali dramalarini yaratgan.

**“Bir ishva bilan” kuyining doyra jo‘rligidagi original ko‘rinishi**

# "BIR ISHVA BILAN"

Muxtorjon Murtazoyev musiqasi.
Nay va doyra ijrosi uchun
Surayyo Xodjayeva moslashtirgan.




29
8va
f
f
36
(8)
43
8va
mf
mf
51
(8)
f
58
8va
ff


66
8va
tr
f
f
74
(8)
tr
8va
81
(8)
88
mf
93
rit.

## “Bir ishva bilan” kuyining nay va fortepiano ijrosi uchun moslashtirilgan varianti xususida

Mazkur kuy mashhur o‘zbek bastakori Muxtorjon Murtazoyev ijodiga mansub. Ko‘p yillardan buyon ashula yolida xonandalar tomonidan ijro etilib keladi. Uning yoqimli kuyini akademik yo‘nalishda ham ijro etish uchun fortepiano cholg‘usini qo‘shdim. Bu 2 cholg‘u – nay va fortepiano o‘rtasida ansamblni hosil qilish uchun ma’lum bir ijodiy ishlar amalga oshirildi. Asar boshlanishiga fortepiano uchun “muqaddima” kiritilib, dastlabki taktlardanoq asarning umumiy xarakterini beradigan musiqiy mato, ya’ni faktura tanlandi. Keyinchalik ham yakkanavoz cholg‘uga hamohang bo‘ladigan barcha unsurlarni zamonaviy talablarga, yangicha musiqiy til, garmonik echimlar va faktura (musiqiy mato) ko‘rinishlariga javob beradigan darajada hal etildi. Bunday ijroga moslashtirilgan asar ilgari bastakorning ashulasini yaxshi biladigan tinglovchiga ma’qul bo‘lishi kerak. Qolaversa, qadimiy cholg‘uimizga xos bo‘lgan ijodiy yo‘nalishni shogird qulog‘iga singdirish, uni bastakorlik ijodiyotidan habardor qilish va mehr uyg‘otish zarur.

**Asar tempi:** ***Moderato*** **(M.M. =70);**

**O‘lchovi: 2/4;**

**Tonalligi: Lya-minor.**

Asarning muqaddimasi fortepianoning 16 taktli yoqimli kuyidan iborat. 17-taktdan boshlab nay kuyni ijro eta boshlaydi, fortepiano oxista qo‘shilib ketadi. 47-taktdagi avjga borganda nayning baland pardalardagi xonishlariga fortepianoning polifonik 2-, 3-ovoz kuy yo‘llari hamohang bo‘ladi. Kuy shiddatiga kuch beradi. 82-taktdan fortepiano kuyda yashiringan falsafiy fikrni tushungandek muloyim faktura tanlaydi-da 2-darajali jo‘rlik uslubiga o‘tadi. Asar boshidagi faktura va ohanglarni yana bir bor eslatib, asarga yaxlitlik beradi. Bu asarni ham keyinchalik o‘zingizning, yangi avlod shogirdlaringizning ham kontsert va pedagogik dastur (repertuar)lariga kiritishingiz mumkin.

# "BIR IShVA BILAN"

Nay va fortepiano uchun

Muxtorjon Murtazoyev musiqasi.
Nay va fortepiano ijrosi uchun
Surayyo Xodjayeva moslashtirgan.




17
mp
mp
23
30
mf
mf


36
43
8va
f
f
49
(8)
3


54
59
8va
mf
mf
64
(8)


69
(8)
74
8va
f
f
79
(8)
8va
f
mf


84
(8)
tr
90
(8)
tr
3
f
96
(8)
8va
mf



rit.
Meno mosso
102
mf
rit.
mp
108

**3-semestr Yakuniy nazoratiga tayyorgarlik ko‘rish jarayonlarida ijro dasturiga kiritilgan xalq merosi va bastakorlar ijodiyoti namunalarini sahnada tayyorlash va topshirish**

O‘quv yili 3-semestrining 18 haftasi mobaynida Oraliq nazorat (ON) va Yakuniy nazorat (YaN)lar dasturiga kiritilgan boshqa texnik va yirik asarlar qatorida, tasdiqlangan yillik dasturga binoan xalq merosiga va bastakorlik ijodiyotiga taalluqli bo‘lgan - “Bir ishva bilan” (M.Murtazoyev musiqasi) hamda “Muhabbat” (xorazm xalq kuyi)ni mukammal o‘zlashtirgan bo‘lishingiz lozim. Kafedra belgilagan muddatlarda ushbu asarlarning mohirona ijrosini sinov komissiyasiga taqdim etishingiz shart. Ustozlar maslahatiga quloq tuting. Maqtovlar yoki kamchiliklaringiz yuzasidan bildirilgan fikrlardan tegishli xulosalar chiqaring.

O‘quv yili boshidan shu kungacha o‘zlashtirgan bilimlaringizni mustahkamlash uchun quyidagi musiqiy krossvord boshqotirmasini eching.

## <u>MUSIQIY KROSSVORD</u>

### “Muxtorjon Murtazoyev” krossvordi

| | | | | | | | | | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|
| | | | | | | | | | | | | 1. | |
| | | | | | | | | | | | | | |
| | | | | | | | | | | | | | |
| | | | | | | | | | | 2. | | | |
| | | | | | | | | | | | | | |
| | | | | | | | 1. | 3. | | | | | |
| | | | | | | | | | | | | | |
| | | | | | | | | | | | | | |
| | | | | 4. | | | | | | | | | |
| 2. | | | | | | | | | | | | | |
| | | | | | | | | | | | | | |
| | 3. | | | | | | | | | | | | |
| | | | | | | | | | | | | | |
| 4. | | | | | | | | | | | | | |
| | | | | | | | | | | | | | |

***<u>Izohlar:</u>***

*a) lotin alifbosidagi undosh - "Ch" va unli - "Ye" qo'sh harflarining har biri alohida katakka yoziladi;*

*b) shoirlar, xonanda, nay va fortepino ijrosi uchun moslashtirgan muallifning faqat familiyasi yoki tahallusi kiritilgan.*

## KROSSVORD SAVOLLARI:

| Gorizontal bo'yicha: | Vertikal bo'yicha: |
|---|---|
| 1. M.Murtazoyevning "Tasadduqman" ashulasi matnining muallifi kim?<br>2. M.Murtazoyevning "Bir ishva bilan" ashulasi kuyini nay va fortepino ijrosi uchun moslashtirgan muallifning familiyasi?<br>3. M.Murtazoyevning Haydar Yahyoyev so'zlari asosida yaratgan mashhur "Tamanno" ashulasini mohirona ijro etgan Tojikistonlik hofizning familiyasi qanday?<br>4. M.Murtazoyevning "Ey, ko'ngil" ashulasi matnining muallifi kim? | 1. M.Murtazoyevning "Sunbullaring" ashulasi matnining muallifi kim?<br>2. M.Murtazoyevning "Bizni tashlab" ashulasi matnining muallifi kim?<br>3. M.Murtazoyevning "Bir ishva bilan" ashulasi matnining muallifi kim?<br>4. M.Murtazoyevning mashhur "Farg'ona tong otguncha" ashulasi matnining muallifi kim? |

### 3-semestr mavzulari bo'yicha savol va topshiriqlar

**Savollar:**

1. Nayning diametri va uzunligi qancha bo'ladi?
2. Qo'shnayning diametri va uzunligi qancha bo'ladi?
3. "Muhabbat" xorazm xalq kuyining o'zgaruvchan o'lchovlari va ladi haqida nimalarni bilasiz?

**Topshiriqlar:**

1."Xalq kuylarini qayta ishlash va moslashtirish tushunchasi" mavzusini yaxshi o'rganing va joriy nazorat kuni ustozlarga gapirib bering.

2. Begmatov S., Zokirov A.lar tomonidan 2006 yilda yozilgan va chop etilgan "Muxtorjon Murtazoyev" o'quv qo'llanmasi bilan yaqindan tanishing.

**Foydalanish uchun adabiyotlar:**

1. Begmatov S., Zokirov A. "Muxtorjon Murtazoyev". –T., 2006.
2. O'zbekiston milliy enstiklopediyasi. Davlat ilmiy nashriyoti, -T., 2000.

## 4-semestr ijro dasturiga tavsiyalar

5150700 – Cholg‘u ijrochiligi (xalq cholg‘ulari) bakalarviat ixtisosligining 2-kursida tahsil olayotgan talabaga 4-semestr mobaynida boshqa texnik va yirik asarlar qatorida, tasdiqlangan yillik dasturga binoan (namuna sifatida) bastakorlik ijodiyoti va xalq merosiga taalluqli bo‘lgan quyidagi an’anaviy musiqa namunalarini o‘zlashtirish tavsiya etiladi:

1. “Ishq seli”, T.Jalilov musiqasi (nay yakkanavozligi uchun);
2. “Dilhiroj”, o‘zbek xalq kuyi (qo‘shnay yakkanavozligi uchun).

## To‘xtasin Jalilov hayoti va ijod yo‘li haqida qisqacha ma’lumotlar

O‘zbekistonning buyuk bastakorlaridan biri - shak-shubhasiz To‘xtasin Jalilov, deb ishonch bilan ta’kidlash mumkin. Milliy enstiklopediyamiz sahifalaridan o‘rin olgan san’atkorlar oilasi – Jalilovlar sulolasining ulug‘i. Ustoz-san’atkor va uning qiz-o‘g‘illari, shogirdlari O‘zbekiston madaniyati rivojiga bir asrdan ortiq davr mobaynida ulkan hissa qo‘shdilar.

To‘xtasin Jalilov 1895-1966 yillarda yashab ijod qilgan – ardoqli sozanda va bastakor, o‘zbek musiqali drama janrining asoschilaridan biridir. “Tohir va Zuhra” (Sobir Abdulla librettosi), “Nurxon” (Komil Yashin asari), “Halima” (G‘ulom Zafariy asari), “Gulsara” (K.Yashin va M.Muhamedovlar asari), “Muqimiy” (Sobir Abdulla asari), “Ravshan v Zulxumor” (Komil Yashin asari) kabi o‘nlab taniqli musiqali dramalarning, “Tohir va Zuhra” operasining muallifi (B.Brovstin bilan hammuallif) sifatida nomi tarix sahifalarida yozilib qoldi. S.Abdulla so‘zlari asosida yaratilgan, operaga kiritilgan “To‘ylar muborak” qo‘shig‘i (Sobir Abdulla so‘zlari) yurtimizda ijro etilmagan kun yo‘q. Bu - bastakor uchun baxt, albatta.

Navoiy, Furqat, Muqimiy kabi mumtoz shoirlarimizning g‘azallariga yozilgan ko‘plab ashulalar xalqimizning bir necha avlodiga tanish, ma’naviy ozuqa beruvchi musiqiy asarlar sifatida barchaga ma’lum. Ular qatorida “Gulistonim mening” (Muqimiy g‘azali), “Aziz Vatanim” (Habibiy so‘zlari), “Kokiling” (Saida Zunnunova so‘zlari), “Yalla” va “O‘ynasin” (Uyg‘un so‘zlari) kabilarni sanab o‘tishning o‘zi kifoya.

## “Ishq seli” kuyining doyra jo‘rligidagi

**original ko'rinishi**

# "ISHQ SELI"

To'xtasin Jalilov musiqasi.
Nay va doyra ijrosi uchun
Surayyo Xodjayeva moslashtirgan.




23
f
f
28
33
8va
ff
f
39
(8)
44
(8)
mp


50
8va
ff
56
(8)
62
68
73
f
77
rit.
p

## “Ishq seli” kuyining nay va fortepiano ijrosi uchun moslashtirilgan varianti xususida

Mazkur kuy musiqa san’atining turli janrlarida barakali ijod qilgan mashhur o‘zbek bastakori To‘xtasin Jalilov qalamiga mansub. Ko‘p yillardan buyon ashula yolida xonandalar tomonidan ijro etilib keladi. Uning yoqimli kuyini akademik yo‘nalishda ham ijro etish uchun fortepiano cholg‘usi qo‘shildi. Bu 2 cholg‘u – nay va fortepiano o‘rtasida ansamblni hosil qilish uchun ma’lum bir ijodiy izlanishlar bajarildi. Asar boshlanishiga boshqa asarlar singari fortepianoda boshlanadigan “kirish” qismi kiritildi. Dastlabki taktlardanoq asarning umumiy xarakterini beradigan musiqiy mato - faktura tanlandi. Keyinchalik ham yakkanavoz cholg‘uga hamohang bo‘ladigan barcha unsurlar zamonaviy talablarga, yangicha musiqiy til, garmonik echimlar va musiqiy faktura ko‘rinishlariga javob beradigan darajada hal etildi. Bunday ijroga moslashtirilgan asar ilgari bastakorning ashulasini yaxshi biladigan tinglovchiga ma’qul bo‘lishi kerak. Qolaversa, qadimiy cholg‘umiz - nayga xos bo‘lgan ijodiy yo‘nalishni shogird qulog‘iga singdirish, uni bastakorlik ijodiyotidan habardor qilish va mehr uyg‘otish zarur.

**Asar tempi:** ***Moderato*** **(M.M.=88);**

**O‘lchovi o‘zgaruvchan: 3/4 - 3/8;**

**Tonalligi: Lya-miksolidiy ladi.**

Bu asarning kirish qismi murakkab o‘lchov almashuvini inobatga olgan holda “doyra usuli”ni eslatuvchi musiqiy fakturada boshlanadi. Nay ham o‘z o‘rnida borligini bildirish ma’nosida asosiy kuy musiqiy jumlasini eslatib turadi va shu asnoda asar ijrosi boshlanib ketadi. Nay ohanglarini to‘ldiruvchi polifonik, nozik va yoqimli 2-kuy yo‘llari bilan fortepiano asarga hayot bag‘ishlaydi. Asar ohanggi avjga ko‘tarilgani sari fortepiano ham faollashib boradi va polifonik kuylarni tinglashiga tinglovchini majbur qilayotgandek tuyuladi. Asar asta-sekin tinglovchiga erkinlik berib, fortepianoning dastlabki akkordlari bilan tugaydi. An’anaviy bastakorolik san’atining yorqin bir namunasi sifatida o‘zingizning, yangi avlod shogirdlaringizning kontsert va pedagogik dastur (repertuar)lariga kiritishingiz tavsiya etiladi.

# "ISHQ SELI"
# Nay va fortepiano uchun

To‘xtasin Jalilov musiqasi.
Nay va fortepiano ijrosi uchun
Surayyo Xodjayeva moslashtirgan.

**Moderato** ♩ = 74




18
24
29
f
mf
35


40
8va
ff
46
(8)
f
52
(8)
mp


59
8va
ff
ff
64
(8)
70
f


75
80
f
mf
84
rit.
rit.

## “Dilhiroj” kuyining doyra jo‘rligidagi original ko‘rinishi

# "DILHIROJ"

O‘zbek xalq kuyi.
Qo'shnay va doyra uchun
Surayyo Xodjayeva moslashtirgan.




31
38
44
ff
f
50
57
64


71
77
84
91
96
rit.
mf
mf

## “Dilhiroj” kuyining qo‘shnay va fortepiano ijrosi uchun moslashtirilgan varianti xususida

Mazkur o‘zbek xalq kuyini akademik yo‘nalishda ijro etish uchun fortepiano cholg‘usini qo‘shib, bu 2 cholg‘u o‘rtasida ko‘p ovozli musiqa ijro etadigan ansamblni hosil qilish uchun ma’lum bir ijodiy ishlarni amalga oshirdim. Fortepianoda asarni boshlash uchun “muqaddima” yozildi, dastlabki taktlardanoq bu kuy uchun ham asarning umumiy xarakterini beradigan musiqiy mato - faktura tanlandi. Keyinchalik ham yakkanavoz cholg‘uga hamohang bo‘ladigan barcha unsurlar zamonaviy talablarga, yangicha musiqiy til, garmonik echimlar va faktura ko‘rinishlariga javob beradigan darajada hal etildi. Bunday ijroga moslashtirilgan asar avvalom bor tinglovchilarga zavq baxsh etishi kerak. Qolaversa, qadimiy cholg‘umizga xos bo‘lgan ijodiy yo‘nalishni siz shogirdlarimiz qulog‘iga singdirish, xalq kuylari va bastakorlik ijodiyotiga mehr uyg‘otish – musiqachi tayyorlashda o‘ta muhim vazifadir.

**Asar tempi:** ***Allegretto*** **(M.M.=120);**

**O‘lchovlari o‘zgaruvchan: 2/4; 3 / 4.**

**Tonalligi: Re major-minor miksolidiy ladi.**

Asarning muqaddimasi sifatida asosiy ohang bilan unchalik bog‘liq bo‘lmagan kuy berilgandek. Lekin fortepianodagi ritmik tuzilishlar baribir mashhur “Dilhiroj”ni eslatadi, albatta. “Muqaddima”da musiqiy jumla (fraza)lar qisqa luqmalar bilan qo‘shnayning qo‘shilib turishini - yurishni boshlamoqchi bo‘layotgan insonni (yoki raqsga tayyorlik ko‘rayotgan raqqosni) eslatishini sezish mumkin.

Qo‘shnaydagi kuy yo‘li avjga ko‘tarilgani sari fortepianoda ham gomofon-garmonik va polifonik musiqiy mato – faktura ham faollasha boradi. Lekin faktura – musiqiy mato asosini baribir “doyra usuli” tashkil etgan. An’anaviy musiqa merosimizning eng durdona asarlaridan biri – “Dilhiroj”ni katta-yu kichik musiqachilar chalshisi keladi. Fortepiano jo‘rligi bilan boyitilgan bu asar sizlarga ma’qul bo‘ladi, degan umiddamiz. Keyinchalik uni ham o‘zingizning, yangi avlod shogirdlaringizning kontsert va pedagogik dastur (repertuar)lariga kiriting.

# "DILHIROJ"

O‘zbek xalq kuyi.
Qo'shnay va fortepiano uchun
Surayyo Xodjayeva moslashtirgan.




18
24
30
36


42
48
54
60
ff


67
73
80
86


92
98
104
108
rit.
rit.
mf
mf

**4-semestr Yakuniy nazoratiga tayyorgarlik ko'rish jarayonlarida ijro dasturiga kiritilgan xalq merosi va bastakorlar ijodiyoti namunalarini sahnada tayyorlash va topshirish**

O'quv yili 4-semestrining 18 haftasi mobaynida Oraliq nazorat (ON) va Yakuniy nazorat (YaN)lar dasturiga kiritilgan boshqa texnik va yirik asarlar qatorida, tasdiqlangan yillik dasturga binoan xalq merosiga va bastakorlik ijodiyotiga taalluqli bo'lgan - "Ishq seli" (T.Jalilov musiqasi) hamda "Dilhiroj" (o'zbek xalq kuyi)ni mukammal o'zlashtirgan bo'lishingiz lozim. Kafedra belgilagan muddatlarda ushbu asarlarning mohirona ijrosini sinov komissiyasiga taqdim etishingiz shart. Ustozlar maslahatiga quloq tuting. Maqtovlar yoki kamchiliklaringiz yuzasidan bildirilgan fikrlardan tegishli xulosalar chiqaring.

4-semestr boshidan shu kungacha o'zlashtirgan bilimlaringizni mustahkamlash uchun quyidagi musiqiy krossvord boshqotirmasini eching.

## MUSIQIY KROSSVORD

**"To'xtasin Jalilov" krossvordi**

| | | | | | | | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|
| 1. | | | | 1. | | | | | | | |
| | | | | | | | | | | | |
| | 2. | | | | | 3. | | | | | |
| 2. | | | | | | | | | | | |
| | | | | | | | | | | | |
| | | | | | | | | 4. | | | |
| | | | | | | 3. | | | | | |
| | | | | | | | | | | | |
| | | | | | | | | | | | |
| | | | | 5. | | | | | | | |
| | | | 4. | | | | | | | | |
| | | | | | | | | | | | |
| | | | | | | | | | | | |
| | | | | | | | | | | | |
| | | | | | | | | | | | |

***Izohlar:***

*a) lotin alifbosidagi undosh - "Ts", unli - "Yo" qo'sh harflari va "G'" harfidagi teskari vergul 1 katakka yoziladi;*

*b) hammuallif kompozitor, dramatik asarlar va ashulalar matni mualliflarining faqat familiyasi yoki tahalluslari, nay va fortepiano ijrosi uchun moslashtirgan muallifning esa ismi kiritilgan.*

## KROSSVORD SAVOLLARI:

| Gorizontal bo'yicha: | Vertikal bo'yicha: |
|---|---|
| 1. Saida Zunnunova so'zlari asosida yaratilgan T.Jalilovning ashulasi qanday nomlanadi?<br>2. To'xtasin Jalilovning "Halima"sining pesa muallifi kim?<br>3. Komil Yashin asari asosida T.Jalilov qaysi musiqali dramasini yaratgan?<br>4. To'xtasin Jalilovning "Gulistonim mening" ashulasi kimning g'azaliga yozilgan? | 1. To'xtasin Jalilovning "Tohir va Zuhra" musiqali dramasi uchun dramaturg Sobir Abdulla nima yozgan?<br>2. To'xtasin Jalilovning "Aziz Vatanim" ashulasi kimning g'azaliga yozilgan?<br>3. To'xtasin Jalilovning "Yalla" va "O'ynasin" ashulalari kimning so'zlariga yozilgan?<br>4. To'xtasin Jalilov kim bilan hammualliflikda "Tohir va Zuhra" operasini yaratgan?<br>5. T.Jalilovning "Ishq seli" ashulasi kuyini nay va fortepino ijrosi uchun moslashtirgan muallif - Xodjaevaning ismi? |

### 4-semestr mavzulari bo'yicha savol va topshiriqlar

**Savollar:**

1. To'xtasin Jalilovning musiqali dramalari va ashulalari haqida nimalarni bilasiz?
2. "Dilhiroj" o'zbek xalq kuyi tarixidan nimalarni bilasiz?

**Topshiriqlar:**

1."Xalq kuylarini qayta ishlash va moslashtirish tushunchasi" mavzusini yaxshi o'rganing va joriy nazorat kuni ustozlarga gapirib bering.

2. 2000 yilda chop etilgan Milliy enstiklopediyadan "Jalilovlar" ilmiy maqolasini o'qing.

**Foydalanish uchun adabiyot:**

O'zbekiston milliy enstiklopediyasi. Davlat ilmiy nashriyoti, -T., 2000.

## 3- va 4-semestrlarda o‘zlashtirilgan bilimlarni mustahkamlash uchun

## TESTLAR*

| № | Test topshirig‘i | “A” | “B” | “C” | “D” |
|---|---|---|---|---|---|
| 1. | **O‘zbek xalq cholg`ularidan tashkil topgan orkestrlar qachon shakllana boshlagan?** | XX asrning 1-yarmida | XXI asrning boshida | XX asrning 2-yarmida | Miloddan avval |
